



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-oktabr VII-15-125-7-96-K/25 Kattaqo‘rg‘on tumani

Xalq deputatlari Payshanba qo‘rg‘oni ijroiya qo‘mitasining 1992-yil 5-martdagi 03/55-son qaroriga o‘zgartish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunining 56- va 59-moddalari, “Normativ huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasi, Kattaqo‘rg‘on tuman M.Ulug‘bek MFY, H.Olimjon ko‘chasi 3-uyda yashovchi Roziqov O‘ktam Hakimovichning ishonchli vakili Roziqov Jamshid O‘ktamovichning arizasiga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashi VII chaqiriq o‘n beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Roziqov O‘ktam Hakimovichning ishonchli vakili Roziqov Jamshid O‘ktamovichning xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashi raisiga Xalq deputatlari Payshanba qo‘rg‘oni ijroiya qo‘mitasining 1992-yil 5-martdagi 03/55-son qaroriga qo‘shimcha kiritish to‘g‘risidagi bergan arizasi va unga ilova etilgan hujjatlar o‘rganib chiqilgan deb hisoblansin hamda undagi talab qanoatlantirilsin.

2. Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashining mazkur qarori bilan Xalq deputatlari Payshanba qo‘rg‘oni ijroiya qo‘mitasining 1992-yil 5-martdagi 03/55-son qaroridagi “Roziqov Uktam” ismi sharifiga o‘zgartish kiritilib, o‘rniga “Roziqov Uktam Hakimovich” deb o‘qilsin va bu haqida Kattaqo‘rg‘on shahar davlat arxivi (B.Sirojiddinov)ga ma’lum qilinsin.

3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish doimiy komissiya (A.Xudoyberdiyev) hamda tuman hokimi o‘rinbosari M.Rasulov zimmasiga yuklatilsin.

4. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



NASRIDDINOV JAMSHID
TULKINOVICH